

Tibbiyot oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlari bo'yicha pullik ta'lim xizmat ularni ko'rsatish uchun 4997-son SHARTNOMA

Toshkent sh. 24.01.2022

Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi nomidan Ustav asosida ish olib boruvchi direktori X.A. Akilov, bundan buyon matnda "Ijrochi" deb ataluvchi bir tomondan, bundan buyon matnda "Buyurtmachi" deb ataluvchi Farg'ona tumani tibbiyot birlashmasi rahbari E.Gulomov ikkinchi tomondan, birgalikda "Tomonlar", deb ataluvchilar mazkur Shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

I. Umumiy qoidalar

1.1. Shartnoma **Buyurtmachi** tomonidan o'qishga yuborilgan tinglovchilarni o'qitish masalalarida **Ijrochi** va **Buyurtmachi** o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi hamda **Ijrochi** va **Buyurtmachining** ushbu Shartnomaning amal qilish davrida o'zaro huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklarini aniqlashga mo'ljallangan.

1.2. Shartnoma amaldagi qonunchilikni hisobga olgan holda tuziladi va tomonlar uchun, shu jumladan **Ijrochi** va **Buyurtmachi** o'rtasida sud va boshqa organlarda nizolarni hal qilishda, qonuniy majburiy hujjat hisoblanadi.

1.3. Tomonlarning ushbu shartnomada nazarda tutilmagan munosabatlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari normalari bilan tartibga solinadi.

II. Shartnoma predmeti

2.1. **Ijrochi Buyurtmachining** o'qishga qabul qilingan kontingentiga kunduzgi ta'lim shaklida davlat ta'lim standarti doirasida kalendar reja va o'quv rejalariga, shu jumladan Ijrochining individual va ta'lim dasturlariga muvofiq, umumiy qiymati **1 867 500** so'mlik ta'lim xizmatlarini ko'rsatish majburiyatlarini oladi:

T/r	Kursning nomi (ta'lim dasturing kodi va nomi)	Kursantlar soni	To'lov miqdori
1.	Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish kafedrasini, 5.1.38. Jamoat salomatligi, xududiy tibbiyot birlashmalari faoliyatini tashkillashtirish va boshqarish. (05.01.2022-01.02.2022, UMO, 144)	1	1 867 500 (1867500*1)
		1	1 867 500

2.2. **Tinglovchilar** o'quv dasturini o'zlashtirganidan, yakuniy attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tganidan so'ng ularga belgilangan namunadagi ta'lim va malaka haqida hujjat beriladi.

III. Tomonlarning o'zaro munosabatlari

3.1. **Ijrochi** quyidagi huquqlarga ega:

3.1.1. Mustaqil ravishda o'quv jarayonini amalga oshirish, **Tinglovchilarni** baholash tizimlari, shakllari, tartibi va oraliq baholash davriyligini belgilash;

3.1.2. **Tinglovchilarga** O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, **Ijrochining** ta'lis hujjatlari, ushbu Shartnoma hamda **Ijrochining** mahalliy normativ hujjatlariga muvofiq rag'batlantirish

3.2. **Buyurtmachi Ijrochidan** ushbu Shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan xizmatlarni tashkil etish va lozim darajada ko'rsatilishini ta'minlash masalalari to'g'risida ma'lumot olish;

3.3. **Tinglovchilar** quyidagi huquqlarga ega:

3.3.1. **Ijrochidan** ushbu Shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan xizmatlarni tashkil etish va lozim darajada ko'rsatilishini ta'minlash masalalari to'g'risida ma'lumot olish;

3.3.2. mahalliy normativ hujjatlarda belgilangan tartibda, o'quv dasturini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan Ijrochining mol-mulkidan foydalanish;

3.3.3. mahalliy normativ hujjatlarda belgilangan tartibda **Ijrochi** tomonidan tashkil etiladigan ijtimoiy, madaniy, sog'lomlashtirish va boshqa tadbirlarda ishtirok etish;

3.3.4. o'zining bilimi, qobiliyatlari, malakasi va ko'nikmalarini baholash hamda ushbu baholash mezonlari haqida to'liq va ishonchli ma'lumotlarni olish.

3.4. **Ijrochi** quyidagilarga majbur:

3.4.1. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, ta'sis hujjatlarida, **Ijrochining** mahalliy nizomlarida belgilangan qabul qilish shartlarini bajargan, **Buyurtmachi** ushbu shartnomaning IV bo'limida ko'rsatilgan to'lov tartibiga rioya qilish sharti bilan **Tinglovchilarni** kursant (tinglovchi) sifatida ro'yxatga olish.

3.4.2. **Buyurtmachiga** va **Tinglovchilarga** pullik ta'lim xizmatlarini ko'rsatish haqidagi ma'lumotlarni yetkazish;

3.4.3. mazkur shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ta'lim xizmatlarni tashkil etish va lozim darajada ko'rsatilishini ta'minlash. Ta'lim xizmatlari, ta'lim standarti, o'quv rejasi, shu jumladan, individual va **Ijrochining** dars jadvaliga muvofiq ko'rsatiladi;

3.4.4. **Tinglovchilarni** o'zlashtirish uchun tanlagan o'quv dasturida ko'zda tutilgan shart-sharoitlar bilan ta'minlash;

3.4.5. **Buyurtmachidan** ta'lim xizmatlari uchun to'lovni qabul qilish;

3.5. **Buyurtmachi** ushbu shartnomaning II bo'limida ko'rsatilgan **Tinglovchiga** ko'rsatilgan ta'lim xizmatlari uchun to'lovni ushbu shartnomada belgilangan miqdorda va tartibda o'z vaqtida amalga oshirishi hamda bunday to'lovni tasdiqlovchi to'lov hujjatlarini **Ijrochiga** taqdim etishga majbur.

3.6. Boshqa shahardan kelgan **Tinglovchi** o'qish davrida yotoqxonada joy bilan ta'minlanishi mumkin.

3.7. **Tinglovchi** quyidagilarga majbur:

3.7.1. Markaz to'g'risidagi nizomga, **Ijrochining** ichki tartib qoidalari, xavfsizlik texnikasi, yong'in xavfsizligi qoidalari va **Ijrochining** boshqa mahalliy qoidalari talablariga rioya qilish.

3.7.2. **Ijrochining** mol-mulkiga ehtiyotkorono munosabatda bo'lish. **Ijrochining** mol-mulkiga yetkazilgan zararni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq qoplash.

3.7.3. Boshqa tinglovchilar, o'qituvchilar va Ijrochining boshqa xodimlariga hurmat bilan

IV. Ta'lim xizmatlarining narxi, ularni to'lash muddatlari va tartibi

- 4.1. O'qitish narxi tasdiqlangan preyskurantga muvofiq 1 867 500 so'mni tashkil qiladi.
- 4.2. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun shartnoma summasi O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida (so'mda) to'lanadi.
- 4.3. To'lov **Buyurtmachi** oldindan shartnoma qiymatining 30 foiz to'lovini shartnoma imzolanganidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi G'aznachiligidan ro'yxatdan o'tganidan keyin o'n bank ish kuni mobaynida Markazning hisob-raqamiga o'tkazib beradi.
Buyurtmachi shartnoma qiymatining qolgan 70 foiz to'lovini markaz tomonidan taqdim etilgan hisob fakturaga asosan, besh bank ish kuni davomida amalga oshiradi.
- 4.4. Institutdagi o'quv mashg'ulotlari boshlanadigan o'ying 01-sanasidan oldin imzolangan shartnoma, shuningdek Shartnoma bo'yicha to'lov va yoki to'lovni tasdiqlovchi hujjatlar bo'lmasa, kursantning (tinglovchining) darslarga kirishiga ruxsat etilmaydi.
- 4.5. **Buyurtmachi** tomonidan to'lov qobiliyati yo'qotilgan taqdirda, boshqa yuridik (jismoniy) shaxs Ijrochi bilan alohida shartnoma tuzish orqali shartnoma bo'yicha to'lovni amalga oshirish huquqiga ega.
- 4.6. To'lov naqd pulda yoki **Ijrochiga** xizmat ko'rsatuvchi bankning hisob raqamiga o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

Tomonlar **Ijrochiga** xizmat ko'rsatuvchi bank hisob varag'iga pul mablag'lari kelib tushgan kuni to'lov majburiyatlarini bajarish kuni deb tan oladilar. Pul mablag'lari Tinglovchini qabul qilish to'g'risidagi buyruq chiqarilishidan 1 kun oldin kelib tushishi kerak.

- 4.7. Agar ta'lim xizmatlari **Buyurtmachi** tomonidan to'lanmagan bo'lsa, **Tinglovchilarga** darslarga qatnashishga ruxsat berilmaydi. Bunday holda Ijrochi ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq ushbu Shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

Tinglovchilar tomonidan sababsiz darslarni qoldirish **Ijrochining** xizmatlari uchun to'lovni amalga oshirmaslik uchun sabab bo'lmaydi.

V. Shartnomani o'zgartirish va bekor qilish tartibi

- 5.1. Ushbu Shartnomada tuzilgan shartlar **Tomonlarning** kelishuviga ko'ra yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq o'zgartirilishi mumkin.
- 5.2. Ushbu Shartnoma **Tomonlarning** kelishuviga ko'ra bekor qilinishi mumkin.
- 5.3. Ushbu Shartnoma muddatidan oldin bekor qilinadi:
 - 5.3.1. **Buyurtmachining** tashabbusi bilan;
 - 5.3.2. **Ijrochining** tashabbusi bilan:
 - **Tinglovchini** o'qishdan chetlatish intizomiy jazo chorasi sifatida qo'llangan taqdirda; kasbiy ta'lim dasturi (o'quv dasturining bir qismi) bo'yicha - Tinglovchilar tomonidan bunday ta'lim dasturini (o'quv dasturining bir qismini) vijdonan o'zlashtirish va o'quv rejasini amalga oshirish majburiyatlari bajarilmagan taqdirda;
 - **Tinglovchining** aybi bilan uning Markazga noqonuniy ravishda o'qishga kirishiga

- pullik ta'lim xizmatlari uchun to'lovni amalga oshirish kechiktirilgan taqdirda;
 - **Tinglovchining** harakatlari (harakatsizligi) tufayli pullik ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha majburiyatlarni tegishli darajada bajarishning imkoni bo'lmasa;
 - **Talaba** yoki uning qonuniy vakillari va Ijrochining irodasiga bog'liq bo'lmagan holatlar yuz berganda, shu jumladan Ijrochi tugatilgan taqdirda,
- 5.4. **Ijrochi** zararlarni **Buyurtmachiga** to'liq qoplash sharti bilan shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishga haqli.
- 5.5. **Buyurtmachi Ijrochi** tomonidan haqiqatda qilingan xarajatlarni to'lash sharti bilan ushbu shartnomani bajarishdan bosh tortishga haqli.

VI. Ijrochi, Buyurtmachi va Tinglovchining javobgarligi

- 6.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki tegishli darajada bajarmaganligi uchun **Tomonlar** O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu shartnoma bo'yicha javobgar bo'ladilar.
- 6.2. Agar **5** kunlik muddat davomida **Ijrochi** tomonidan ta'lim xizmatidagi kamchiliklar bartaraf etilmagan bo'lsa, **Buyurtmachi** Shartnomani bajarishdan bosh tortishga va zarari to'liq qoplashni talab qilishga haqli. **Buyurtmachi**, shuningdek, taqdim etilgan ta'lim xizmatida jiddiy kamchilik aniqlangan taqdirda yoki shartnoma shartlaridan boshqa muhim og'ishlar aniqlangan taqdirda, Shartnomani bajarishdan bosh tortishga haqli.
- 6.3. **Ijrochi** ta'lim xizmatlari ko'rsatish shartlarini (boshlanishi va (yoki) ta'lim xizmatlari ko'rsatish oxiri va (yoki) ta'lim xizmatlari ko'rsatishning oraliq muddatlari) buzgan bo'lsa yoki ta'lim xizmatlari ko'rsatish paytida uni o'z vaqtida taqdim etilmasligi aniq bo'lgan bo'lsa, **Buyurtmachi** o'z tanloviga ko'ra quyidagilarga xaqli:
- **Ijrochiga** yangi muddat tayinlash, uning davomida Ijrochi ta'lim xizmatlarini ko'rsatishni boshlashi va (yoki) ta'lim xizmatlarini ko'rsatishni tugatishi kerak;
 - Shartnomani bekor qilish.

VII. Shartnoma muddati

- 7.1. Ushbu Shartnoma **Tomonlar** tomonidan tuzilgan kundan boshlab kuchga kiradi va **2022 yil 31 dekabr** qadar amal qiladi.
- 7.2. **Tinglovchiga** akademik ta'til berilgan taqdirda Shartnomaning amal qilishi, **Buyurtmachi** tomonidan ushbu Shartnomada nazarda tutilgan to'lov tartibiga qo'yiladigan talablar bajarilishi sharti bilan, akademik ta'til berilgan muddatga cho'ziladi. Akademik ta'til davrida ta'lim uchun to'lov undirilmaydi.

VIII. Yakuniy qoidalar

- 8.1. **Ijrochi** va uning ushbu shartnomada ko'rsatilgan faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar **Ijrochining** "Internet" tarmog'idagi rasmiy saytida joylashtirilgan mazkur shartnoma tuzilgan sanadagi axborotga mos keladi.
- 8.2. Ta'lim xizmatlari ko'rsatish muddati (o'qish davri) deb Shartnomada ko'rsatilgan va kalendar rejada ko'rsatilgan sanalarga mos keladigan vaqt oralig'i tushuniladi.

8.3. Ushbu Shartnoma ikki nusxada tuziladi va bir nusxasi - **Ijrochida**, biri - **Buyurtmachida** saqlanadi. Barcha nusxalar bir xil yuridik kuchga ega. Ushbu shartnomaga o'zgartish va qo'shimchalar faqat yozma ravishda kiritilishi mumkin va **Tomonlarning** vakolatli vakillari tomonidan imzolanadi.

8.4. Shartnomaga o'zgartishlar Shartnomaga qo'shimcha kelishuvlar orqali amalga oshiriladi.

8.5. **Tomonlar** ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini suv toshqinlari, yong'inlar, zilzilalar, boshqa tabiiy ofatlar, qonunchilikdagi o'zgarishlar va boshqalar kabi fors-major holatlari sababli qisman yoki to'liq bajarmaganliklari uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar. Agar ushbu holatlar mazkur Shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, bir tomon yuqoridagi holatlar yuzaga kelgandan keyin 10 kundan kechiktirmay ikkinchisini yozma ravishda xabardor qiladi.

IX. Tomonlarning manzillari va rekvizitlari

IJROCHI

Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini
rivojlantirish markazi

Manzil: 100007, Toshkent shahar

Mirzo Ulug'bek tumani. Parkent ko'chasi 51

Tel/faks: 71 268 11 79; 71 268 22 17

L/s: 400110860262697096200054001

INN: 200541310 OKONK: 92200 OKED: 85590

Moliya Vazirligi G'aznachiligi

R/s: 23402000300100001010

RKTSGUTSB Toshkent sh

MFO: 00014 INN:201122919

BUYURTMACHI

Farg'ona tumani tibbiyot birlashmasi

Manzil: Farg'ona tumani

Vodil qishlog'i Quvonch 96

H/r: 401422860302337073101054002

Bank: Markaziy bank Toshkent

MFO: 00014 STIR: 200196882

OKED: 91511

Tel/Faks: 73-353-15-40

Akilov X.A.

Rahbar: E.Gulomov



Markaz to'g'risidagi Nizom, davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma, Markazning ichki tartibi Nizomi, Qabul qilish qoidalari, tanlangan mutaxassislik /ta'lim yo'nalishining o'quv dasturi bilan tanishtirildim. Shaxsiy ma'lumotlarimdan amaldagi

keltirilgan hujjatlar haqida aniqshtirilmagan savollarim mavjud emas. Shartnomaning 4.1-
bandida ko'rsatilgan summani to'lashni o'z zimmamga olaman.

2022 yil " " yanvar

Buyurtmachining imzosi

(Gulomov Elbek Anvarovich)

Familiya, ismi, sharifi

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDAGI HUQUQIY
XULOSA
№KY10203266**

1. Loyiyaning turi: shartnoma
2. Loyiyaning nomi: Tibbiy xizmat ko'rsatish to'g'irisida
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:
Farg'ona tumani tibbiyot birlashmasi tomonidan 2022-yil
19-yanvar kuni ishlab chiqilib, dasturga kiritilgan.
Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish
natijalariga ko'ra

XULOSA:

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Yuridik xizmat ko'rsatish
markazi bosh yuriskonsulti:**



A.Mirzayev

2022-yil 19-yanvar